SIR Publishers
CENTER FOR INTERNATIONAL SCIENTIFIC PUBLICATIONS
JOURNAL OF ARTS AND HUMANITIES
ISSN(Online): 2984-6676
Volume-9, Issue-01, Published |16-01-2026|

SHAHAR SHAROITIDAGI JANGDA DUSHMANNI EHTIMOLIY HARAKATLARI

O’zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti otish tayyorgarlik kafedrasi
katta o’qituvchilari
Turayev Shavkat Ergashevich
Uteshov Askarali Ismetullaevich

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shahar sharoitidagi janglarni olib borishda o’q otish tayyorgarligining dolzarbligi, shuningdek shahar sharoitlarida qullash imkoniyati mavjud bo’lgan texnika va qurollar, ularga bo’lgan talablar shu bilan birgalikda shahsiy xarakatlar ko’rib chiqilgan.

Kalit so’zlar: Jangovar harakatlar, manyovr, xujum, qurol-aslaxa, pozitsiyalar, laberint, bino kup qavatli o’ylar, tuqnashuv, guruhlarning xarakati, jangovar tayyorgarligi.

ВЕРОЯТНЫЕ ПЕРЕДВИЖЕНИЯ ПРОТИВНИКА В БОЮ В ГОРОДСКИХ УСЛОВИЯХ

Старшие преподаватели кафедры огневой подготовки
Университета общественной безопасности
Республики Узбекистан
Тураев Шавкат Эргашевич
Утешов Аскарали Исметуллаевич

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассмотрены актуальность огневой подготовки при ведении боевых действии в городских условиях, а также были рассмотрены возможности применения боевой техники и оружия в городских условиях и требования и им, и индивидуальные действия.

Ключевые слова: Боевые действия, манёвр, атака, вооружение, позиции, лабиринт, многоэтажные здания, столкновение, действия групп, боевая подготовка.

PROBABLE ENEMY MOVEMENTS IN URBAN COMBAT

Senior Instructors of the Firearms Training Department
University of Public Security of the Republic of Uzbekistan
Turayev Shavkat Ergashevich
Uteshov Askarali Ismetullaevich

ANNOTATION

In this article discusses the relevance of weapons training in the conduct of hostilities in urban conditions and also considered the possibility of using military vehicles and weapons in urban conditions and their requirements, and individual actions.

Key words: Combat operations, maneuver, attack, weapons, positions, labyrinth, high-rise buildings, clash, group actions, combat training.

Qadimdan ma’lumki, har bir jangovar harakatlarda dushmanga nisbatan qarshilik ko’rsatish uchun avvalam bor, uning harakatlarini bilish lozim va unga monand jang shakli va usulini ishlab chiqish mantiqqa muvofiq hisoblanadi.

SIR Publishers
CENTER FOR INTERNATIONAL SCIENTIFIC PUBLICATIONS
JOURNAL OF ARTS AND HUMANITIES
ISSN(Online): 2984-6676
Volume-9, Issue-01, Published |16-01-2026|

Demak, zamonaviy urushlar va harbiy mojarolar (Iroq urushi 2003-2011 y., Suriya fuqarolik urushi 2012-2017 y.) tahlili shuni ko'rsatmoqdaki unda asosan dushman sifatida irregulyar qo'shinlar kasb etmoqda.

Bu turdagi dushman o'ziga xos tasnifi, ya'ni tuzilishi, boshqarish faoliyati, jang olib borish usuli va unga tayyorgarlik ko'rish hamda turli xil zaxiralarni tayyorlash bilan ajralib turadi.

Shunday ekan, taktik nuqtai nazaridan dushmanning harakatlarini bilish o'ta muhim va dolzarb hisoblanadi.

Shahar sharoitida jang olib borish jangarilar uchun ayniqsa, mudofaa tasnifiga ega harakatlari o'ta qulay hisoblanadi. Ushbu sharoitda mudofaani o'ziga xos xususiyatlari quyidagilarda, ya'ni:

mudofaa qilishda ikkita mudofaa ko'rinishi birikmalab qo'llanilishi (masalan, Suriyadagi urushda jangarilarning 2016 yil Aleppo shahridagi mudofaa harakatlari pozitsion va manyovrli mudofaani birikmasi shaklida olib borilgan);

mudofaa tuzishda jangarilar qo'shinlari asosan bir eshelonli, zaxira yaratish bilan jang olib borishi;

mudofaalanishda jangarilar ketma-ket ortga chekinib avval tayyorlangan pozitsiyalarga qo'shinlarni ―olovli qopga tortmoqligi;

jangarilarga nisbatan kuchli qarshi zarba berilganda u ortga chekinib shaharda bo'linib mahalliy aholi ichida tarqalib ketishi;

jangarilar tomonidan pozitsion mudofaa qattiq turib olib boriladi;

qarshi ko'rsatish tugunlari (mustahkamlangan hudud) asosan aholi yashash punktlarida, joylashish tayanch baza markazlarida va tevarak-atrofdan baland turgan tepaliklarda jihozlanib ko'p yarusli aylana shaklida mudofaani va yuqori samaraga ega muhandislik ta'minoti ta'minlaydigan tarzda olib boriladi (misol tariqasida ushbu tamoyilga asosan mudofaa Suriyadagi Aleppo, Palmira, Akerbat, Deyr-ez-Zor, Meyadin va Abu-Kemal shaharlarida tuzilgan edi) namoyon bo'lmoqda.

Jangarilarning hujum harakatlarida ham bir qator o'zgacha taktik usullar qo'llash kasb etmoqda, jumladan:

ko'rinish va o't ochishni cheklanganligi;

qo'shinlar manyovr qilishini tangligi;

jang olib borishni murakkablashtirmoqligi hamda kerakli paytda zarur bo'lgan yo'nalishga kuchlar sur'atini oshirish bo'yicha qiyinchilik tug'dirmoqligi;

jangovar harakatlar natijasida katta vayronalar, uyumlar, yong'inlar paydo bo'lishi va mina-portlatuvchi to'siqlarni mavjudligi oqibatida jangni qiyinlashuvi;

jang mobaynida turli xil robotlashtirilgan vositalar qo'llanilishi.

Bundan tashqari jangarilar tomonidan hujum hamda mudofaa tasnifiga ega jangovar harakatlarda keng ko'lamda turli xil texnikalarni jangovar texnikaga qo'l bola usuli bilan mohirona moslashtirilganligini va har xil nomlanishi ko'rmoqdamiz. Jumladan, «do'zax olovi», pulemyotli pikap ―tachanka va boshqalar.

Irregulyar qo'shinlar kuchli tomoniga ularning ko'p yillik jangovar tajribasi, yuqori intizomi va jangovar ruhi, yakkaboshchilik tamoyiliga asoslangan markazlashgan boshqarish tizimini aytib o'tish lozim. Jipslik va tayyorgarlik darajasi bo'yicha ular muntazam qo'shinlaridan hech ham qolishmaydi.

Jangovar harakatlar olib borishda (Suriya misolida) ular hujum ob'ekti oldiga borish maqsadida asosan ikki usulni qo'llashadi:

asosiysi – yashirinlik bilan katta tezlikda ikki-uch va undan ko'p yo'nalishlardan, pikap avtomashinalarini yurish vositasi sifatida foydalanib katta kalibrli pulemyotlarni jihozlangan holda chiqib borishi;

ikkinchisi – tinch aholi va qo‘lga olingan harbiy hizmatchilarni to‘siq sifatida qo‘llash bilan.

Hujum hukumat qo‘shinlari pozitsiyalariga o‘limga mahkum etilgan odamlarni bir-uch minalashtirilgan avtomobillar yoki zirhli texnika bilan to‘satdan hujum qilishi yohud ―uxlab yotgan jangarilar tomonidan hukumat qo‘shinlari ob‘ektlariga jangarilarni asosiy hujum yo‘nalishini yashirish maqsadida amalga oshiriladi.

Hujum mobaynida jangarilar ketma-ket ob‘ektlarni zabt etib mudofaalanayotgan bo‘linmalarni front oldida chalg‘ituvchi harakatlarni amalga oshirib bir vaqtning o‘zida qanotlardan hamla qilib hamda mudofaalanayotgan bo‘linmalarni front ortiga yer osti tunnelaridan foydalangan holda chiqib taktik usullarni qo‘llashadi.

O‘ta xavfli yo‘nalishlarda yoki jangarilarni ortga chekinishini to‘sish maqsadida ularga olovli madadni minomyot olovi va 3-4 katta kalibrli pulemyot bilan jihozlangan pikap yordamida mobil zaxirasi (20 kishigacha) ta‘minlaydi.

Shu ma‘noda jangarilarni o‘ta turg‗unligini aytib o‘tish ham joyiz. Harbiy hisob kitoblarda amal qilinadigan, jumladan dushmanga 50% talafot yetkazsa u o‘z pozitsiyalarini tashlab ketadi degan tamoyil Suriyada o‘z tasdig‘ini topmadi.

Suriyadagi urushda (2017 yildagi bahorgi-kuzgi kompaniyada) jangarilar o‘ta mushkul qarshilik ko‘rsatishgan ularni pozitsiyalarini zabt etish uchun ob‘ektlariga 90% talafot yetkazish kerak bo‘ldi. Jangarilar tomonidan o‘z pozitsiyalarini tashlab ketish holatlari umuman uchramasdi, ular tomonidan tayanch punktlarni ushlab turish uchun oxirgi jangari o‘lguniga qadar jang olib borilardi. Jangarilar texnikasi va otish vositalari bilinmaslik maqsadida oddiy va samarali usul bilan ya‘ni moyni qum bilan aralashtirish birikmasi bilan surkalardi.

Shahar sharoitidagi jangovar harakatlarning o‘ziga xos xususiyatlari. Shahar sharoitida jangovar harakatlar olib borish odatiy sharoitlarga nisbatan bir muncha o‘ziga xos xususiyatlarga ega, jumladan:

Jang shakli bo‘yicha - jangovar harakatlarning bir qator mahalliy janglarga parchalanib ketishi va bir-biridan ajralgan yo‘nalishlar bo‘yicha kichik bo‘linma va guruhlar bilan olib borilishi.

Jangni boshqarish usuli bo‘yicha - boshqaruvning qiyinlashuvi va uni markazlashgan tizimidan markazlashmagan tizimiga o‘tib bo‗linmalarga taktik jihatdan mustaqillikka imkon yaratilishi.

Jangni olib borish usuli bo‘yicha: umumqo‘shin qo‘shin va bo‘linmalarida jang olib borishning noan‘anaviy usullaridan keng foydalanishi, ya‘ni pistirma, reyd, ishg‘ol hamda qurshovga (qamalga) olish harakatlari tomonlarning biri jangda o‘zaro jangovar to‘qnashishsiz uslubini qo‘llagan holda olib borishi;

jangovar tutashganlik chizig‘ini aniq mavjud emasligi va uning vertikal bo‘yicha, ya‘ni yer osti kommunikatsiyalardan tortib binolarning ustki qavatlarigacha va ichkariga cho‘zilganligi.

Jangni har tomonlama ta‘minoti borasida:

moddiy, texnik va tibbiy ta‘minotni qiyinlashuvi kichik bo‘linmalarda zaxiralar miqdorini ko‘paytirish va har tomonlama ta‘minot bo‘yicha choralar ko‘rishni talab qilishi;

razvedka organlari miqdorini oshirishga talab qilishi.

Tahlillar natijasi shuni ko‘rsatmoqdaki, shahar sharoitidagi janglarda qo‘shinlarni jangovar qo‘llanishi asosan batalon, vzvod taktik guruhlar yohud ishg‘ol otryad va guruhlar shaklida amalga oshirilmoqda.

Shahar sharoitidagi jang turlarini qo‘rib chiqar ekanmiz bundan shahar mudofaasi bevosita ichki va tashqi tomonida tayyorlanib, tashqi tomonida mudofaa hududni mudofaa qilish tamoyiliga asosan tayyorlansa, ichki tomonida esa markazga qarata marralab mudofaa tuguni va pozitsiyalarini

tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi, hamda o‘t ochish tizimini **ko‘p yarusli** tuzish uchun qulay sharoitlar mavjudligi (binolarni yer to‘lasidan tomiga qadar) bilan ajralib turadi.

Bundan tashqari mudofaa qiluvchilar o‘zaro ajralgan guruhlar tarkibida biroq, bir-biri bilan olovli aloqa bilan bog‘langan holda alohida bino va tayanch punktlarida joylashadi hamda harbiy xizmatchi va jangovar texnikaga talafot yetkazish maydoni front bo‘ylab gorizontal va vertikal yassilikda **2 barobar** ko‘pligi ko‘rsatmoqda.

Shaharlarda yer osti kommunikatsiyalari (yerto‘la, yer osti yo‘llari, metro va x.k.) mavjudligi hisobi uchun aviatsiya va artilleriya qo‘llagan sharoitda ham dushman o‘ta yashovchanligini saqlab qolishi xususiyatiga ega.

Suriya mojarosidagi tajribalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, yer osti kommunikatsiyalari turli ko‘rinishga ega bo‘lib quyidagicha tasniflanadi:

uzunligi 900 metrgacha, chuqurligi 12 metrgacha, tunnel balandigi 1,5 metr eni esa 1 metrgacha.

Shahar o‘zini o‘zagi bilan dushmanni to‘xtatishga qodir mudofaani tashkillashtirish hamda uning aksariyat hujum qiluvchi qismini chalg‘itib va uzoq muddatli mudofaa jangini to‘liq qurshovga olingan holda ham olib borishga imkon yaratadi.

Odatiy mudofaaga o‘xshashlik kabi shahar mudofaasining maqsadi dushmanni ustunli kuchini qaytarib, unga maksimal darajada talafot yetkazish shaharni ushlab turish va hujumga o‘tish uchun qulay sharoit yaratish.

Bo‘linmalarni jangovar harakatlar mobaynida mudofaaga o‘tishi yuzaga kelgan sharoitdan va olingan vazifadan kelib chiqib oldindan va majburiy ya‘ni dushman bilan bevosita to‘qnashgan va to‘qnashmagan holatda amalga oshirilishi mumkin.

Shahar sharoitida mudofaa odatda uning tashqi va bevosita ichki tomonidan tashkillashtiriladi. Shahar tashqi tomonida mudofaa odatiy holatdagidek tuziladi va olib boriladi.

Shahar ichki tomonidan esa mudofaa markazga qarata marralab mudofaa tuguni va pozitsiyalarini tuzish yo‘li bilan amalga oshiriladi, hamda o‘t ochish tizimini ko‘p yarusli tuzish uchun qulay sharoitlar mavjudligi (binolarni yer to‘lasidan tomiga qadar) bilan ajralib turadi.

Bo‘linmalarni davlatning ichkarisida joylashgan shaharlarida mudofaaga o‘tishi dushman bilan bevosita to‘qnashishsiz holatda amalga oshiriladi.

Ushbu sharoitda barcha mudofaaga taalluqli tashkiliy ishlar hududda o‘tkaziladi, mudofaa muhandislik borasida oldindan tayyorlanib bo‘linmalar tomonidan zaruriyat asosida sharoitdan kelib chiqib oldinda shahar chekasida mudofaalanuvchi bo‘linmalar to‘sig‘i ostida egallanishi mumkin.

Shahar sharoitidagi mudofaada muvaffaqiyatga erishish uchun barcha bo‘g‘inda doirasimon mudofaa qilish, front ortini va qanotlarni ishonchli ta‘minlash, razvedka va kuzatuvni puxta tashkillashtirish hamda dushmanni manevriga qarshi ta‘minlash zarur.

Shahar sharoitida urush sohasidagi xorijiy mutaxassislar bir nechta xususiyatlar va maslahatlarni ta’kidlaydilar:

Aholi punktlarida jangavor individual harakatlarning asosi **"chap qo’l qoidasi" deb ataladi** . Uning mohiyati shundan iboratki, o’ng tomondan o’q otishda chapga burilish o’ng tomonga burilishdan ko’ra osonroq va qulay. Bunda panani o’ng tomondan tanlash zarur. Shuni hisobga olib, o’ng elkadan otish paytida siz otishmaning chap tomonida joylashgan boshpanalardan foydalanishingiz kerak. Bu pozitsiya qulayroq va dushman o’qlari uchun kamroq ochiq. Shuning uchun dushmanning boshpanalari uning o’ng tomonida va o’zinikining chap tomonida bo’ladigan pozitsiyalarni egallash tavsiya etiladi. Buning uchun o’zingizdan chap tomonga o’tib, jang maydonini "burish" tavsiya etiladi.

Binolarning burchaklaridan iloji boricha uzoqroqda bo'lganingiz ma'qul: burchakda yashiringan dushman sizni hayratda qoldira olmaydi. Binoda to'g'ridan-to'g'ri ko'rinadigan masofada bo'lish va o'rtoqlarning xavfsizligini taminlash kerak. Amaliyotlar shuni ko'rsatadiki har qanday ob'ekt - shkaf, tortma, muzlatgich minalashtirilgan bo'lishi mumkin.

Dushman (o'zaro emas) aniqlanganda, siz yon tomonga keskin sakrab o'tmasligingiz kerak - periferik ko'rish tez harakatni aniqlaydi. Bunday hollarda mutaxassislar yumshoq va silliq o'tirib, pozitsiyani egallashni maslahat berishadi.

Tayyorgarliksiz qorong'i xonaga kirmaslik kerak - ko'zlar qorong'ilikka ko'nikishi kerak. Bunday holda, yorug'lik moslamalaridan foydalanish kerak. Bunday ob'ektlarga kirganda, fazoning chuqurligiga kirish joyining o'ng va chap tomonidagi bo'shliqlarni yorug'lik nurlari bilan tekshirish kerak, so'ngra yorug'lik nuri yoritilgan joydan xonaga keskin harakat qiladi va oldingi tomonga o'tadi. yoritilgan joy, eshikdan qiyshayib o'tkir otilib, egilib, cho'kkalab, birinchi bo'lib podvalni, chodirni, omborni va hokazolarni ko'zdan kechirishi kerak bo'ladi. Darhol cho'kkalab eshikdan uzoqlashadi. U fonar bilan xonani yoritadi va agar kerak bo'lsa, o'zidan keyin kirib kelganlarni yopish uchun olov yoqadi. Har qanday holatda, yorug'lik manbai qurol joylashgan tomonga qarama-qarshi cho'zilgan qo'lda ushlab turilishi kerak.

Qisman ko'r bo'lgan dushman yorug'likka o'q uzadi va jangchidan uzoqlashadi. Binoga kirishda qurol avtomatik qurol bo'lib, to'pponchani kestirib ushlab turish kerak. Oldinga cho'zilgan qurol tayoq, oyoq va boshqalar bilan osongina urib tushiriladi. Agar kerak bo'lsa, labirintning yaqin masofasida siz dushmanni nishonga olmasdan, "qo'ldan", kornidan otishingiz mumkin.

Qorong'ida chekinishda imkon qadar tezroq yoritilgan joylardan qoching yoki ularni siltab kesib o'ting.

Agar dushman yoki dushmanlar guruhi yaqin masofada kutilmaganda to'qnash kelgan taqdirda, dushman tomon va uning o'ng tomonida oldinga siljish paytida mo'ljalsiz otish kerak . Dushman guruhi a'zolari chapdan o'ngga o't ochishga majbur bo'ladilar, qurollarini bir-birining orqa tomoniga qaratib, guruh nishonini ifodalaydilar. Tez harakat paytida siz o'zingizga boshpana belgilab, unga qarab harakat qilishingiz kerak. Mutaxassislar dushman bilan uchrashganda orqaga yugurishni maslahat bermaydilar - orqa tomondan otish ehtimoli yuqori.

Ochiq maydonda (ko'cha, park) o't ochish vaqtida "chap qo'l qoidasi"ga ko'ra, zig zak va panadan panaga o'tib xarakat qilish kerak.

Yugurishda otish paytida, oyoqni o'tkazish paytida tepkini bosish kerak, chunki oyoq erga tushganda, bu "otishma-qurol" tizimini silkitib, otishning aniqligini pasaytiradi.

Guruhingizdan oldinga siljish undan chiqib ketish va natijada tugatish bilan bog'liq. Ba'zi hollarda, masalan, kuchli nuqtani qo'lga kiritish uchun oldinga chiziq chizig'i taktik jihatdan qo'llaniladi. Siz u erda o'zingizni mustahkamlashingiz mumkin, o'ng va chapdagi qo'shnilarni olov bilan qo'llab-quvvatlashingiz, bir qatorga o'tganlarida ularni yopishingiz mumkin.

Har qanday ob'ektni (dushman qal'asini) qo'lga olish paytida unga hujum paytida hujum qilingan ob'ektga va dushmanning boshqa o'q otish nuqtalariga tez-tez o'q o'zadigan himoya guruhining o't bilan qo'llab-quvvatlashi bilan yaqinlashish imkonini yaratadi . Iloji bo'lsa, ob'ektga quyosh tomonidan yaqinlashish yaxshiroqdir - bu dushmanning maqsadli o'q otishiga to'sqinlik qiladi.

Olov qaysi derazalardan otilganini hisobga olsak, ob'ektga o't ochgan dushmanning o'ng tomonidan yaqinlashish yaxshiroqdir. Siz ichkaridan qulflangan eshik oldida to'plana olmaysiz - dushman u orqali o't ochishi mumkin. To'g'ri versiyada qal'a pulemyotdan 3-4 marta o'q bilan qaytariladi. Shuni esda tutish kerakki, AK-74 dan otish paytida oldindan aytib bo'lmaydigan

rikoshetlar kuzatiladi. Tajribali raqib devorlardagi bo'shliqlarni gilam yoki boshqa narsalar bilan qoplashi mumkin. Shunday qilib, xavf eshik va derazalardan kelib chiqishi mumkin.

Agar kuchli joy sifatida ko'p qavatli uyni egallashga qaror qilingan bo'lsa, unda , qoida tariqasida, pastki qavatlar va yarim podvallar to'siq bilan to'siladi. Turli boshpanalardan navbatma-navbat o't ochish kerak. Taktik nuqtai nazardan, qo'rg'on sifatida ishlatiladigan, bir-birining o't o'chuvchilari tomonidan to'sib qo'yilgan bir nechta uylar kuchli mudofaa va keyingi oldinga siljish va yaradorlar uchun boshpana uchun poydevor yaratadi.

Aholi punktining turli xil binolarida va dushman joylarida o'nlab turli omillar ta'sirida juda ko'p turli xil vaziyatlar yuzaga keladi, ularning har biri o'ziga xosdir. Shu sababli, chet ellik mutaxassislarning maslahati shahardagi barcha jangovar to'qnashuvlar uchun universal emas, balki maslahat xarakteriga ega va ko'plab omillarni hisobga olgan holda o'zgartirilishi mumkin.

Umuman olganda shaharda mudofaa bo'linmalarining chuqur eshelonlashtirilganligi, ichkari va front bo'ylab jangni bir me'yorda rivojlanmasligi hattoki, butunlay qurshovga olingan holatda ham har bir bino uchun jangni jadal ravishda olib borish bilan tasniflanadi.

Ushbu vaziyatdan kelib chiqqan holda, shahar sharoitida mudofaa va xujum jangini tashkillashtirish va olib borish jarayonida, zamonaviy urushlar va harbiy mojarolar (Iroq urushi 2003-2011 y., Suriya fuqarolik urushi 2012-2017 y.) chuquroq tahlil qilish va o'rganish talab qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Военный энциклопедический словарь. - М. : Воениздат, 1983.- 863 с.
2. Программа боевой подготовки мотострелковых подразделений.- М.: Воениздат, 1995.- 156 с.
3. Огневая подготовка мотострелковых подразделений.- М.: Воениздат, 1988.- 238 с.
4. Огневая подготовка,- Ч.1.- М.: Воениздат, 1978.- 421 с.
5. Воробьев И.Н. Новое оружие и развитие принципов общевойскового боя // Военная мысль.- 1986.- №б.- С.35-45.
6. Гареев М.А. Локальные войны и подготовка войск // 1фасная Звезда.- 1992.- 20 нояб.
7. Сборник боевых примеров. Опыт действий Федеральных войск против незаконных формирований на территории Чеченской республики: ч.1 / А.Г.Байер, П.В.Ващенко и др.- М.: ВАФ, 1997.- 140 с.